



“TASDIQLAYMAN”

Samarqand MGQE boshlig‘i v.b.

S.Yu. Nematullayev

2024 yil

Samarqand Markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi Zarmitan DEsi
xodimlari safida o‘tkazilgan davra suhbat

BAYONNOMASI № 30

14.11.2024 yil

Qushrobod tumani
Qirqovul qishlog‘i

Qatnashdilar: S.X.Miqiyev - Zarmitan DEsi boshlig‘i v.v.b

- Zarmitan DEsi ishchi xizmatchilari, jami 45 nafar xodim.

- Samarqand viloyati Qushrobod tumani ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi katta inspeknori kapitan Yuldoshyev Sohib Orziqulovich, inspektori leytenant Mamadiyorov Ramziddin Oybekovich.

Mavzu: “9-dekabr Butun jahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”



Davra suhbatini Samarqand MGQE Zarmitan DEsi boshlig‘i v.v.b S.X.Miqiyev ochib, kun tartibini e‘lon qildi va kun tartibidagi masala yuzasidan Zarmitan dala ekspeditsiyasining barcha toifadagi ishchi xizmatchilari korrupsiya illatiga qarshi kurashish uchun mas‘ul ekanligini, ushbu illatni yuzaga keltiruvchi omillarni barvaqt aniqlab bartaraf etish zarurligini hamda ishchi xodimlarda uning har qanday ko‘rinishiga nisbatan muvosiqlashtirish munosabatda bo‘lish muhitini yaratish lozimligini ta’kidladi.



Kun tartibidagi masala yuzasidan Qushrobod tumani IIO FMB bo'limi xodimi kapitan S.O.Yuldoshiyev o'z so'zida mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari va bu borada milliy qonunchilikning yaratilishi, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, xususan, qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarlari va korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlari, jamoat tashkilotlari, aholi va fuqarolarning roli va ularning mas'uliyatini oshirish lozimligini shuningdek, ushbu jarayonda ommaviy axborot vositalarining faol ishtirokini ta'minlash zarurligini ta'kidladi.



Qushrobod tumani IIO FMB bo'limi xodimi leytenant R.O.Mamadiyorov korrupsiyaviy jinoyat va huquqbuzarliklar hamda jinoyatga jazo muqarrarlari tusunchalariga izoh berdi va misollar keltirdi.



Davra suhbatida Zarmitan DEsi burg'ulash uchastkasi boshlig'i A.Hamzayev, geologlar S.Mirzaev va S.Esonovlar ham o'z fikr-mulohazalarini bildirishib, bu illatga qarshi kurashishda barcha ishchi xizmatchilar mas'ul ekanligini takitlashdi.

**Toshiriqlarning ijrosini nazorat
qilish bo'yicha inspektor**

“ 14 ” 11 2024 yil.

A.B.Olmasov